Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 316

OILAVIY MUNOSABATLAR VA IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALAR

Murodillo Ma’rufjon o‘g‘li Abduvaliyev*
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ abduvaliyevmurodillo17@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy oilada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni bartaraf etish, o‘zaro hurmat va mas’uliyatni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni qaror toptirishda mazkur texnologiyalarning o‘rni asoslab berilgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar

Oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, oila instituti, ijtimoiy tartibga solish, oilaviy qadriyatlar, mediatsiya, psixologik maslahat, ijtimoiy barqarorlik.

DOI: 10.5281/zenodo.23617297

Globallashuv davrida oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat oilaning asosi va mustahkamligi saqlashga majbur qilmoqda. Umumiy qadriyatlar oila a’zolarini bir maqsad sari intilishga, qiyinchiliklarni birgalikda yengishga undaydi. Shaxsning shakllanishi uchun bolalar oilaviy qadriyatlar muhitida ulg‘ayar ekan, ular shu qadriyatlarni o‘zlashtiradilar va o‘z hayotiy prinsiplariga aylantiradilar. Bu ularning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga asos bo‘ladi. Xavfsizlik va barqarorlik hissi esa aniq va mustahkam qadriyatlarga ega oilada bolalar o‘zlarini xavfsiz va himoyalangan his qiladilar. Bu ularning ruhiy barqarorligi va o‘ziga ishonchi uchun juda muhimdir. Avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan esa oilaviy qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, oila tarixi, an’analari va merosini saqlab qoladi. Bu esa oila a’zolarining o‘z ildizlarini anglashiga yordam beradi. Muammolarni hal qilishdagi yo‘nalish sifatida oilaviy qadriyatlar hayotda turli vaziyatlar, muammolar yuzaga kelganda, oilaviy qadriyatlar to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun kompas vazifasini o‘taydi.

Islom ta’limotida ham oila har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda buziladi, tinchi yo‘qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi [1.5]. Shuning uchun oila inqirozini oldini olishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qo‘llash bu texnologiyalar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, oilaviy muammolarni hal qilish va oilaviy inqirozlarni oldini olishga qaratilgan samarali vositalar sifatida global va lokal maqomda ahamiyatlidir.

Bizningcha, quyidagi ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning qo‘llanilishi jamiyatda va oilaviy munosabatlarda inqirozni oldini olishga sabab bo‘ladi;

Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish va jamiyatda ijobiy munosabatni shakllantirish zarur. Chunki, “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi...

Agar ota-ona, katta o‘g‘il-qizlar o‘zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomila qiladigan bo‘lsa, bu holat bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vaqti-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odat sifatida namoyon bo‘ladi. Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga yetishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir” [2.56]. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlari oilaning baxtu-saodati uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Axloqli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jumladan, miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yurtimizda paydo bo‘lgan zardushtiylik e’tiqodining muqaddas kitobi “Avesto”da jamiyatdagi axloqiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar, sodir etilgan jinoyat uchun munosib jazo berish, oila va nikoh, go‘dakning sog‘lom tug‘ilishi, yashashi va rivojlanishini ta’minlash kabi masalalar o‘z ifodasini topgan [3.44]”

Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish va jamiyatda ijobiy munosabatni shakllantirish oilaning muhim vazifalaridan biri urf-odatlarni, qadriyatlar keyingi avlodga yetkazish, bu esa jamiyatda ijtimoiy davomiylikni ta’minlaydi. Oila o‘tmishni kelajak bilan bog‘laydi. Shu sababdan inson o‘z hayoti faqat bugundangina iborat emas, balki o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi ko‘prik sifatida qarashi lozim. Ana shundagina insonlar oila, oila mustahkamligi, oilaviy munosabatlarni qadriyat sifatida baholab, keyingi avlodga yetkaziladi, uning zaminida hayot zanjiri mavjudligi his qilinadi [4.12]. Shuning uchun ham oilaviy qadriyatlarni saqlash va keyingi avlodga yetkazish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki, televideniye, radio, gazetalar, jurnallar va internet orqali oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, oilaviy munosabatlarning ahamiyatini ko‘rsatish, ijobiy oilaviy namunalarni targ‘ib qilish va oilaviy muammolar haqida xabardorlikni oshirish bilan amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir. Ulardan oqilona va samarali foydalanish jamiyatda sog‘lom va mustahkam oilalar sonining oshishiga, shu orqali umumiy farovonlikka katta hissa qo‘shadi.

References

[1]
1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol nashr, 2021.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008.
3. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Тошкент, “O‘zbekiston”. 2024.
4. Inagamova F.X. Qadriyatlar transformatsiyasining yosh oilalar mustahkamligiga ta’siri. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2025.